Kosimjonov Nozimjon Kozimjonovich	
MINTAQALARNING BARQAROR IQTISODIY O'SISHIDA YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASINING AHAMIYATI: NAZARIY YONDASHUVLAR TAHLILI	815
Maxmudov Sobir Xudoyberdiyevich	
TURISTIK XIZMAT BOZORINING MOHIYATI, UNING VAZIFALARI VA MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	821
Payazov Murod Maqsudovich, Salimova Mumtozbeqim Jahongir qizi, Shahnoza Xudoyberdiyeva Davlatovna	
CHIGITLI PAXTA TARKIBIDAN YOT ARALASHMALARNI AJRATISH UCHUN QO'LLANILADIGAN TEXNOLOGIYALAR.....	825
Bozorov Dilmurod Bahromjon o'g'li, Jakparov Oltinboy Rustamjon o'g'li	
FEMALE ENTREPRENEURSHIP AND GREEN INITIATIVES: A CONCEPTUAL FRAMEWORK FOR SUSTAINABLE DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN	830
Abduxafizova Madinabonu Mirabbos qizi	
SOLIQ INSTRUMENTLARI ORQALI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	834
Akbarov Abdulhamid Akmal o'g'li, Ahrorqulov Jonibek Otabek o'g'li	
O'ZBEKISTONDA SANOAT ISHLAB CHIQRISHI KONSENTRATSIYASINING HUDUDIY TAHLILI: VILOYATLAR VA MAXSUS IQTISODIY ZONALAR BO'YICHA HERFINDAHL-HIRSCHMAN INDEKSI	839
Anvarxonov Abdulatifxon Jamshidxon o'g'li	



CHARM-POYABZAL SANOATI TARMOG'INING RIVOJLANISHI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI TO'G'RISIDA.....	847
Azimova Feruza Payziyevna, O. Maxmudov	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOG'INING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA RESURS EHTIYOJLARI.....	852
Arziqulova Oybarchin Eshquvat qizi	
KADRLAR SALOHİYATINI OSHIRISHGA YO'NALTIRILGAN TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	858
Xo'jaqulov Bobur Rustam o'g'li	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA KREDITLASH TIZIMINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	864
Tajimuratova Nelufar Vays qizi	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BAHOLASHNING EKONOMETRIK MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	871
Normamatova Sitara Nozim qizi, Raxmanov Mexridin Sindarovich	
BAHOLANGAN RISKLARGA NISBATAN AUDITORNING HATTI-HARAKATLARI	876
A.Z.Avlokulov	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA DAVLAT SUBSIDİYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA MOLIYAVIY HISOBOTDA OCHIB BERISHNI TAKOMILLASHTIRISH	880
Qadamov Mirzobek Ulug'bek o'g'li	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	885
Мухторов М. Н., Каримова А. М.	
FIZIK XAVFSIZLIK NAZORATI VA UNI ISPY DASTURI ASOSIDA MONITORING QILISH.....	892
Usmanbayev Doniyorbek Shuxratovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH JARAYONIDA STRATEGIK MENEJMENTNING AHAMIYATI	902
Bazarbaeva Dildora Ekramjon qizi, Koshanov Abdimurat Azat uli	
KALSIYLANGAN SODA ISHLAB CHIQRISHDA TEXNOLOGIK PARAMETRLARNI METROLOGIK TA'MINLASHNING AHAMIYATI	910
Ametova Biybisuliu Xamidullaevna, Ametov Quanishbay Xamidullaevich	
ЛЬГОТЫ ПО ПРЯМЫМ И КОСВЕННЫМ НАЛОГАМ И ИХ ГАРМОНИЧНОЕ СООТНОШЕНИЕ	915
Фаттоев Олимжон Гайрат ўғли	
O'ZBEKISTONDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI QO'LLAB-QUVVATLASHNING KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDAGI INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	920
Ulashova Zarnigor Botirali qizi	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	925
Abduraxmonov Valijon G'ofurovich, Yusupova Dilnigor A'zamjon qizi	
IQTISODIY TIZIMDA RISK VA UNING XUSUSIYATLARI TAHLILI.....	929
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	937
Zayniddinov Aloviddin Zayniddin o'g'li	
SOLIQ NAZORATINING AMALIYOTDAGI SAMARADORLIK JIHATLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	945
Nizomxonov Elbekxon Erkinxon o'g'li	
FISKAL MEKANIZMLARNING HUDUDIY RIVOJLANISHGA TA'SIR ETISH XUSUSIYATLARI.....	950
Ne'matov Ne'matulla Erkinboyevich	
ФИСКАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА: ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	955
Воронин Сергей Анатольевич, Ахмедова Фазилат Жураевна	
IMPROVING EMPLOYEE MOTIVATION AND DEVELOPING AN EFFECTIVE INCENTIVE SYSTEM IN HUMAN RESOURCE MANAGEMENT.....	962
Makhmudov Sunnatjon Abdujabbor ugli, Ashurova Jasmina Jo'ra kizi	



O'ZBEKISTONDA KO'P POG'ONALI PENSIYA TIZIMIGA O'TISHNING EKONOMETRIK TAHLILI VA MOLIYAVIY BARQARORLIK MODELLARI	966
Mamatqulova Yayra Dilmurod qizi	
SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY O'SISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	971
Astanayev Kulmakhammat Sanayevich	
JAHON IQTISODIYOTINING GLOBALLASHUV OMILLARI VA BOSQICHLARI	977
Abdullayeva Zulfiya Izzatovna	
ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA JUST-IN-TIME TIZIMIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	981
Mahmudov Sunnatjon Abdujabbor o'g'li	
KORXONALARDA ASOSIY FAOLIYAT XARAJATLARINING AUDITINI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARI	986
Djumayeva Guzal Axtamovna, Sag'dullayev Abdullo Valijon o'g'li	



KORXONALARDA ASOSIY FAOLIYAT XARAJATLARINING AUDITINI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARI

Djumayeva Guzal Axtamovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
"Buxgalteriya hisobi" kafedrası assistenti

Sag'dullayev Abdullo Valijon o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada korxonalarda asosiy faoliyat xarajatlari auditini amalga oshirishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida xarajatlarning mazmuni, audit jarayonining bosqichlari hamda moliyaviy hisobotlarning ishonchligini ta'minlashdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, korxonalarda xarajatlarni audit qilishda uchraydigan muammolar tahlil qilinib, ichki nazorat tizimini kuchaytirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va xalqaro audit standartlaridan foydalanish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: asosiy faoliyat xarajatlari, xarajatlarning auditini, auditorlik tekshiruvi, moliyaviy hisobot, ichki audit, ichki nazorat, mahsulot tannarxi, auditorlik dalillari, audit standartlari, ERP tizimi.

Аннотация. В данной статье исследованы теоретические и практические аспекты проведения аудита расходов основной деятельности на предприятиях. В ходе исследования раскрыты содержание аудита расходов, этапы аудиторской проверки и их значение в обеспечении достоверности финансовой отчетности. Кроме того, проанализированы проблемы, возникающие при аудите расходов на предприятиях, и разработаны научно-практические рекомендации по усилению системы внутреннего контроля, внедрению цифровых технологий и использованию международных стандартов аудита.

Ключевые слова: расходы основной деятельности, аудит затрат, аудиторская проверка, финансовая отчетность, внутренний аудит, внутренний контроль, себестоимость продукции, аудиторские доказательства, стандарты аудита, ERP-система.

Annotation. This article examines the theoretical and practical aspects of auditing operating expenses in enterprises. The study highlights the essence of cost auditing, the stages of the audit process, and their importance in ensuring the reliability of financial statements. In addition, the problems encountered in auditing operating expenses were analyzed, and scientific and practical recommendations were developed to strengthen internal control systems, implement digital technologies, and apply international auditing standards.

Keywords: operating expenses, cost audit, auditing process, financial reporting, internal audit, internal control, production cost, audit evidence, auditing standards, ERP system.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar faoliyatining moliyaviy natijalarini shakllantirishda asosiy faoliyat xarajatlari muhim o'rin egallaydi. Korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko'rsatish jarayonida yuzaga keladigan xarajatlarning to'g'ri hisobga olinishi va nazorat qilinishi moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, foyda miqdorini oshirish hamda raqobatbardoshlikni kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli asosiy faoliyat xarajatlari auditini korxonalarda moliyaviy intizomni mustahkamlash va buxgalteriya hisobi ma'lumotlarining ishonchligini ta'minlovchi muhim vositalardan biri hisoblanadi.

Asosiy faoliyat xarajatlari auditini korxonalar xarajatlarning qonunchilik va amaldagi me'yoriy hujjatlarga muvofiqligini tekshirish, xarajatlarning haqqoniyligini baholash hamda ularni moliyaviy hisobotlarda to'g'ri aks ettirilganligini aniqlashga qaratiladi. Audit jarayonida xarajatlarning iqtisodiy asoslanganligi, hujjatlar bilan tasdiqlanganligi va mahsulot tannarxiga to'g'ri kiritilganligi muhim mezon sifatida baholanadi. Ayniqsa, ishlab chiqarish tannarxini shakllantirishda yo'l qo'yiladigan xatolar korxonaning moliyaviy natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Hozirgi kunda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga moslashish jarayonida korxonalarda audit tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa asosiy faoliyat



xarajatlari auditining nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o'rganishni talab etadi. O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni [1], "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni [2] hamda xarajatlar tarkibini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar [3] asosiy faoliyat xarajatlari auditining huquqiy asosini tashkil etadi. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar auditorlik tekshiruvlarini amalga oshirish tartibi, auditorlik xulosalarining ishonchliligi va moliyaviy hisobotlarni baholash mezonlarini belgilab beradi.

Korxonalarda asosiy faoliyat xarajatlari auditini amalga oshirishda ishlab chiqarish xarajatlari, mehnatga haq to'lash xarajatlari, amortizatsiya ajratmalari, moddiy xarajatlar hamda boshqa operatsion xarajatlarning to'g'ri hisobga olinganligi tekshiriladi. Audit natijalari asosida korxonada xarajatlar hisobini yuritishdagi kamchiliklar, qonunchilikka mos kelmaydigan xarajatlar va moliyaviy xatolar aniqlanadi hamda ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. Shu bilan birga, audit korxonada faoliyatida ichki nazorat tizimini mustahkamlash va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, korxonalarda xarajatlar ustidan samarali audit nazoratini tashkil etish moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini oshirish, soliqqa tortish bazasini to'g'ri shakllantirish hamda iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash imkonini beradi. Shu sababli asosiy faoliyat xarajatlari auditini amalga oshirish xususiyatlarini ilmiy va amaliy jihatdan tadqiq etish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi korxonalarda asosiy faoliyat xarajatlari auditining nazariy va huquqiy asoslarini o'rganish, audit jarayonining amaliy xususiyatlarini tahlil qilish hamda xarajatlar auditini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Korxonalarda asosiy faoliyat xarajatlari auditini tashkil etish va takomillashtirish masalalari iqtisodchi olimlar hamda auditorlar tomonidan keng o'rganilgan ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Auditning asosiy vazifasi moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini baholash, xo'jalik operatsiyalarining qonuniyligini tekshirish hamda korxonada faoliyatida moliyaviy intizomni ta'minlashdan iboratdir. Shu jihatdan asosiy faoliyat xarajatlari auditini o'rganish korxonalarda xarajatlar hisobi va ichki nazorat tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy iqtisodchi olimlardan Robert Montgomery auditorlik faoliyatining nazariy asoslarini ishlab chiqishda muhim ilmiy qarashlarni ilgari surgan. U auditni moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini aniqlashga qaratilgan mustaqil nazorat shakli sifatida baholab, xarajatlar auditida hujjatlarning ishonchliligi va ichki nazorat tizimining samaradorligini alohida ta'kidlagan. Shuningdek, Alvin Arens va James Loebbecke tomonidan auditorlik faoliyatiga oid ilmiy ishlarda xarajatlar auditining bosqichlari, auditorlik dalillari va risklarni baholash masalalari chuqur yoritilgan.

Audit nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishga katta hissa qo'shgan olimlardan biri Charles T. Horngren hisoblanadi. Uning ilmiy ishlarida boshqaruv hisobi va xarajatlar tizimini nazorat qilish mexanizmlariga alohida e'tibor qaratilgan. Olimning fikricha, xarajatlar auditining samaradorligi korxonada boshqaruv hisobi tizimining qay darajada shakllanganligi bilan chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa, mahsulot tannarxini shakllantirish jarayonida xarajatlarni to'g'ri tasniflash audit sifatini oshirishga xizmat qiladi.

MDH mamlakatlari olimlari tomonidan ham xarajatlar auditiga oid ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, Viktor Paliy moliyaviy nazorat va audit tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borib, xarajatlar auditida ichki nazorat tizimining o'rni muhim ekanligini asoslab bergan. Olim korxonalarda xarajatlarni tekshirish jarayonida hujjatlashtirish va analitik tahlil usullaridan samarali foydalanish zarurligini ta'kidlaydi.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan Qo'ziyev Ibrohim, Rizaev Bahodir hamda boshqa tadqiqotchilar tomonidan auditorlik faoliyati, xarajatlar hisobi va ichki audit masalalari milliy iqtisodiyot sharoitida tadqiq etilgan. Ularning ilmiy ishlarida korxonalarda xarajatlar auditini tashkil etish, auditorlik dalillarini shakllantirish, moliyaviy hisobotlarni tekshirish va audit natijalari asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida audit tizimida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. ERP tizimlari, elektron buxgalteriya dasturlari va avtomatlashtirilgan audit texnologiyalari xarajatlar auditining aniqligi va tezkorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Biroq ayrim ilmiy tadqiqotlarda xarajatlar auditining amaliy mexanizmlari, ichki audit tizimining samaradorligi hamda xalqaro audit standartlarini milliy amaliyotga moslashtirish masalalari yetarli darajada yoritilmagan.

Yuqoridagi ilmiy qarashlar va tadqiqotlar asosida xulosa qilish mumkinki, korxonalarda asosiy faoliyat xarajatlari auditini samarali tashkil etish moliyaviy nazoratni kuchaytirish, mahsulot tannarxini to'g'ri shakllantirish hamda korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Shu sababli xarajatlar auditining nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o'rganish hamda uni zamonaviy yondashuvlar asosida

takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda korxonalarda asosiy faoliyat xarajatlari auditini amalga oshirish xususiyatlarini o'rganish, audit jarayonining samaradorligini baholash hamda uni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan metodologik yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini iqtisodiy tahlil, tizimli yondashuv, taqqoslash, guruhlash, statistik kuzatuv va iqtisodiy-mantiqiy tahlil usullari tashkil etdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida korxonalarda asosiy faoliyat xarajatlari auditining amaliy holati o'rganilib, xarajatlarni hisobga olish va nazorat qilish tizimining samaradorligi tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, asosiy faoliyat xarajatlari korxonada moliyaviy natijalarining shakllanishida muhim o'rin tutadi va ularning noto'g'ri hisobga olinishi foyda miqdorining kamayishi hamda moliyaviy hisobotlarda xatoliklarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Shu sababli xarajatlar auditini sifatli tashkil etish korxonada moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Korxonalarda asosiy faoliyat xarajatlari auditini o'rganish natijasida xarajatlarni hujjatlashtirish va mahsulot tannarxiga kiritishda ayrim kamchiliklar mavjudligi aniqlandi. Jumladan, moddiy xarajatlarning ayrim hollarda birlamchi hujjatlar bilan to'liq tasdiqlanmaganligi, mehnatga haq to'lash xarajatlari bo'yicha hisob-kitoblarda tafovutlar mavjudligi hamda bilvosita xarajatlarni mahsulot tannarxiga taqsimlashda xatoliklarga yo'l qo'yilayotgani kuzatildi. Bu esa moliyaviy hisobotlarning ishonchliligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tahlillar davomida xarajatlar auditining asosiy bosqichlari — auditni rejalashtirish, auditorlik dalillarini yig'ish, analitik tahlil o'tkazish va auditorlik xulosasini shakllantirish jarayonlari baholandi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, auditni puxta rejalashtirish va ichki nazorat tizimini baholash auditorlik tekshiruvining sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, auditorlik dalillarining yetarliligi va ishonchliligi audit natijalarining haqqoniyligini ta'minlaydi.

Korxonalarda asosiy faoliyat xarajatlari auditini amalga oshirishda ichki audit tizimining roli ham muhim ekanligi aniqlandi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ichki audit tizimi samarali tashkil etilgan korxonalarda xarajatlar ustidan nazorat kuchli bo'lib, moliyaviy xatolar va noqonuniy xarajatlar kamayishi kuzatiladi. Shu bilan birga, ichki nazorat tizimining yetarli darajada samarali ishlamasligi ayrim xarajatlarning noto'g'ri aks ettirilishiga va mahsulot tannarxining asossiz oshib ketishiga olib kelishi mumkin.

Tahlillar asosida raqamli texnologiyalarni audit jarayoniga joriy etishning ijobiy natijalari ham o'rganildi. ERP tizimlari va avtomatlashtirilgan buxgalteriya dasturlaridan foydalanayotgan korxonalarda xarajatlar auditini tezkor va aniq amalga oshirilishi kuzatildi. Elektron audit texnologiyalari auditorlik tekshiruvlari davomida hujjatlar aylanishini soddalashtirish, ma'lumotlarning aniqligini oshirish va inson omili bilan bog'liq xatolarni kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarning xarajatlar auditidagi o'rni ham tahlil qilindi. O'zbekiston Respublikasining auditorlik faoliyatiga oid qonunchilik bazasi audit jarayonlarini tartibga solishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilayotgan bo'lsa-da, ayrim holatlarda xalqaro audit standartlariga moslashuv darajasini oshirish zarurligi aniqlandi. Ayniqsa, xarajatlar auditida zamonaviy risklarni baholash va analitik audit usullaridan foydalanishni kengaytirish ehtiyoji mavjud.

Tadqiqot natijalari asosida korxonalarda asosiy faoliyat xarajatlari auditining samaradorligini oshirish uchun quyidagi yo'nalishlar muhim ekanligi aniqlandi: auditorlik tekshiruvlarini rejalashtirish sifatini yaxshilash, ichki audit tizimini mustahkamlash, xarajatlarni elektron nazorat qilish tizimlarini joriy etish, auditorlarning malakasini oshirish hamda xalqaro audit standartlarini amaliyotga keng tatbiq etish. Mazkur chora-tadbirlar korxonalarda moliyaviy nazorat tizimini kuchaytirish, xarajatlar hisobining ishonchliligini oshirish va moliyaviy natijalarni yaxshilashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, korxonalarda asosiy faoliyat xarajatlari auditini samarali tashkil etish moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta'minlash, mahsulot tannarxini to'g'ri shakllantirish hamda korxonada faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Asosiy faoliyat xarajatlari korxonada xarajatlarning asosiy qismini tashkil etgani sababli ularni audit qilish jarayonida aniqlik va shaffoflikni ta'minlash moliyaviy boshqaruvning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tahlillar davomida korxonalarda xarajatlar auditini amalga oshirishda ayrim muammolar mavjudligi



aniqlandi. Jumladan, xarajatlarni hujjatlashtirish tizimining yetarli darajada shakllanmaganligi, bilvosita xarajatlarni mahsulot tannarxiga noto'g'ri taqsimlash, ichki nazorat tizimining sustligi hamda auditorlik tekshiruvlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasining pastligi audit samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayrim hollarda xarajatlarning iqtisodiy asoslanganligi va qonuniyligini baholashda metodik yondashuvlarning yetarli emasligi ham moliyaviy hisobotlarda xatolarga sabab bo'lishi mumkinligi aniqlandi. Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

- korxonalarda asosiy faoliyat xarajatlari auditini xalqaro audit standartlari asosida tashkil etish va amaliyotga keng joriy etish maqsadga muvofiq;
- ichki audit va ichki nazorat tizimini kuchaytirish orqali xarajatlar ustidan doimiy monitoringni yo'lga qo'yish zarur;
- xarajatlarni hujjatlashtirish jarayonlarini to'liq raqamlashtirish hamda elektron hujjat aylanish tizimlarini joriy etish tavsiya etiladi;
- bilvosita xarajatlarni mahsulot tannarxiga taqsimlashda zamonaviy audit va boshqaruv usullaridan foydalanish lozim;
- auditorlarning kasbiy malakasini oshirish, xalqaro tajribalarni o'rganish va amaliyotga tatbiq etish audit sifatini yaxshilashga xizmat qiladi;
- ERP tizimlari va avtomatlashtirilgan buxgalteriya dasturlaridan foydalanishni kengaytirish orqali audit jarayonining tezkorligi va aniqligini oshirish maqsadga muvofiq;
- audit jarayonida risklarni baholash va analitik tahlil usullaridan samarali foydalanish orqali moliyaviy xatolarni oldindan aniqlash imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, asosiy faoliyat xarajatlari auditini takomillashtirish korxonalarda moliyaviy intizomni mustahkamlash, resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash hamda moliyaviy natijalarni yaxshilashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Audit tizimida zamonaviy axborot texnologiyalari va xalqaro standartlardan foydalanish orqali xarajatlar nazoratining samaradorligini oshirish, moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini ta'minlash hamda korxonalarining iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi 2021-yil 25-fevral, O'RQ-677-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5307886>
2. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi 2016-yil 13-aprel, O'RQ-404-son Qonuni. <https://lex.uz/ru/docs/-2931253>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-son "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/-264422>
4. International Auditing and Assurance Standards Board. Handbook of International Quality Management, Auditing, Review, Other Assurance, and Related Services Pronouncements. 2023–2024 Edition. New York: IFAC, 2024.
5. Montgomery R.H. Auditing: Theory and Practice. New York: The Ronald Press Company, 1912.
6. Arens A.A., Loebbecke J.K. Auditing: An Integrated Approach. 8th ed. Upper Saddle River: Prentice Hall, 2000.
7. Arens A.A., Elder R.J., Beasley M.S., Hogan C.E. Auditing and Assurance Services: An Integrated Approach. 17th ed. Boston: Pearson, 2020.
8. Datar S.M., Rajan M.V. Horngren's Cost Accounting: A Managerial Emphasis. 16th ed. Boston: Pearson, 2018.
9. Paliy V.F. Upravlencheskiy uchët izderzhék i dokhodov. Moskva: INFRA-M, 2006.
10. Qo'ziyev I.N. Auditorlik tekshiruvlari natijalari bo'yicha auditorlik hisobotlari va xulosalarini tuzish masalalari. Toshkent: Iqtisodiyot, 1999.
11. Annayev A.A. Xizmat ko'rsatish korxonalarida xarajatlar auditini // JMBM. 2026. № 7.
12. Esanov O.M., Karimova M. Korxonada daromadlari va xarajatlari auditini // JMBM. 2025. № 11.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100